BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘TILADIGAN ERTAKLARNING G‘OYAVIY-BADIIY TAHLILI MUAMMOLARI

O`ktamova Mehrigiyo A`zamovna

O‘quvchilarni maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab odob-axloq me’yorlari darajasida tarbiyalash o‘qituvchilar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi. Chunki o‘quvchilarning ma’naviyati yuksak inson bo‘lishida maktab asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bilim poydevorini qurish bilan birga tarbiya jarayoni ham shakllantirib boriladi. Chunki bolani yoshlikdan tarbiyalab borilsa, uning ma’naviyati yuksak, obro‘si baland, kelajagi porloq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qishning birinchi kunlaridan boshlab, o‘quvchilarga ta’lim berish bilan birga, tarbiya ham berib borilishi eng asosiy vazifa hisoblanadi. Ta‘limning maqsadi o‘quvchilarga jahon andozalariga mos bilim va malakalarni singdirishdan iborat bo‘lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirishdan iboratdir.

Bolalarni qadimiy urf-odatlar, tarixiy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, insonlarga xos eng yaxshi xislatlarni singdirish kabi g‘oyalar, asosan, ular o‘qiydigan asarlarda jamuljam bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf O‘qish kitoblaridan o‘rin olgan bir qancha xalq ertaklari shaxsga **mehnat**ning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mana shunday ertaklardan biri “Aql va boylik” (1-sinf) ertagidir. Bunda chol to‘rt o‘g‘liga qarata “Kim aqlli va davlatmand bo‘lsa, o‘sha oila boshlig‘i bo‘lib qoladi”, – deydi. O‘g‘illaridan biri zumrad ko‘zli oltin uzugini, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko‘rsatadi. Kenja o‘g‘il esa otasining savoliga “Menda zumrad ko‘zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo‘q. Lekin mehnatkash qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor”, – deydi. Shu sabab otasi uni oila boshlig‘i qilib, uy-ro‘zg‘orini meros qoldiradi. Ko‘rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g‘oyani ilgari surgan.

Shuningdek, 1-sinf O‘qish kitobidagi “Aqlli bog‘bon” ertagi orqali ham o‘quvchilar mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalanadi: Bir bog‘bonning uch o‘g‘li bor edi. Ular dangasa va ishyoqmas edilar. Bog‘bon kasal bo‘lib, o‘g‘illariga “Bog‘ning ichiga bir ko‘za oltin ko‘mganman”, – deb vasiyat qilibdi. Bog‘bon dunyodan ko‘z yumgandan keyin o‘g‘illari bog‘ni tuproqlari kul bo‘lguday qazibdilar, biroq oltinni topa olmabdilar. Lekin shu yili tok shunday uzum qilibdiki, bir necha ko‘za oltinga to‘ladigan bo‘libdi. Ertakda hunar o‘rganish boylik garovi ekanligi ta’kidlanadi. Mazkur ertak o‘quvchilarda

https://wordlyknowledge.uz

har qanday vaziyatda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va bu imkoniyatdan samarali foydalanish tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Hakka va uning bolalari” ertagida mehnat qilish, hunar o‘rganish kishini saodatga boshlashi, aksincha, dangasalik insonni halokat yoqasiga olib borishi uqtirilgan. Mazkur ertak yoshlarimizni dangasalikdan, tanballikdan, boqimandalikdan xalos etishga yordam beradi.

O‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda ishchanlik, tartiblilik, ehtiyotkorlik xislatlarini shakllantirish tarbiyaviy ishlarning tarkibiy qismlaridan sanaladi. 2-sinf O‘qish kitobidagi “Mehnat – baxt keltirar” bo‘limidan o‘rin olgan “Uch o‘g‘il” maishiy ertagi o‘quvchilarga **iqtisodiy tarbiya** berishda ko‘mak beradi.

Dehqon safarga ketish oldidan uch o‘g‘lini chaqirib, bir juft tovuq, bir juft o‘rdak va bir juft g‘oz berib, jo‘nab ketibdi. O‘g‘illariga parrandalardan kelgan foydani jamlab, sarflamasliklarini ta’kidlabdi. Biroq biroz vaqtdan so‘ng katta va o‘rtancha o‘g‘il avval tuxumlarni, so‘ng tovuq va o‘rdaklarini sotib yuborishibdi. Kenja o‘g‘il esa g‘ozlarni ko‘paytirib, tuxumlarni sotib, anchagina pul yig‘ibdi. Safardan qaytgan ota kenja o‘g‘lidan mamnun bo‘libdi. Oradan yillar o‘tib, ota o‘g‘illarini uylantirib qo‘yibdi. Ikki katta o‘g‘ilning turmushi yaxshi bo‘lmabdi. Ular bor bisotlarini sotib, yeb bitirishibdi-da, otalarining qo‘liga qarab qolishibdi. Kenja esa tadbirkorlik bilan ish tutib, kundan kun yaxshi yashay boshlabdi. Dehqon kenja o‘g‘lidan rozi ekan. Ertakda ishga mas’uliyatsiz, loqayd, yolg‘onchi odamlar hayotda hamisha qoqilib yashaydilar, ularning dangasaligi, tadbirsizligi doimo o‘zlariga pand beradi, degan ibratli xulosa ikki aka taqdiri orqali ifoda etilgan. Mazkur ertak yosh avlodda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida fikrlashga o‘rgatadi.

Inson halol mehnat tufayligina qadr-qimmatga, hurmatga, shuningdek, boylikka ham erisha oladi. “Davlat” (4-sinf) ertagida mana shunday ibratli g‘oya ilgari surilgan. Davlat dehqonning hovlisida bir necha yillardan buyon yashar ekan. U tufayli dehqon badavlat ekan. Bir kuni Davlat dehqonga boshqa joyga ketmoqchiligini aytganda, dehqon juda qayg‘uribdi. Oilasidagilar bilan maslahatlashib olish uchun unga bir kun vaqt berishini so‘rabdi. Dehqon xotini, ikki o‘g‘li, kelinlari-yu qiziga voqeani aytibdi. Dehqonning kenja kelinidan boshqa hamma xafa bo‘lib yig‘labdi. Oqila kelin: “Davlat ketsa ketaversin. Siz oyim bilan duo qilib o‘tirasiz. Biz hammamiz mehnat qilamiz. Ekin ekamiz, mol boqamiz, meva teramiz, hayotimiz yomon bo‘lmaydi”, – debdi. Ertasiga dehqon Davlatga unga ruxsat berishini, farzandlarining bir yoqadan bosh chiqarib, ahil bo‘lib mehnat qilmoqchi ekanliklarini aytibdi. Bu gaplarni eshitgan Davlat: “Bobo, men shu yerda qolaman. Men xursand bo‘lib, ahil yashaydigan xonadonni yaxshi ko‘raman. Inoqlik qayerda bo‘lsa, men ham o‘sha yerdaman”, – debdi. Davlat dehqonning xonadonida umrbod qolibdi.

https://wordlyknowledge.uz

O‘quvchilarni **vatanparvarlik** ruhida tarbiyalash bu kunning ustuvor vazifalaridan biridir. O‘qish kitoblarida vatanni ulug‘lash, uni sevib-ardoqlash ruhidagi bir necha sara asarlar jamlanganki, bulardan biri “Botir mergan va chaqimchi” ertagidir. Ertakdagi Botir mergan xalq ideali, tinchlik, mardlik, to‘g‘rilik, mehribonlik, adolatparvarlikning ramziy ifodasidir. Ertakda xalq farovonligi barcha narsadan ustun ekanligi Botir mergan qahramonligi orqali ifoda etilgan. Qahraton qishda qirq uyli ovulini ochlikda, og‘ir ahvolda qoldirmaslik uchun podsho mollarini keltirib, odamlarga so‘yib berib, ularni qishdan eson-omon olib chiqadi. Ovuldagi bir chaqimchi podshoga Botir merganni sotganda, mergan podsho huzuriga borib, o‘zining aql-u farosati, donishmand so‘zlari bilan o‘z jonini xatardan saqlab qoladi. Dastavval podsho merganni so‘ramay-netmay dorga osmoqchi bo‘lsa-da, merganning so‘zlariga quloq solib, Botirning dovyurakligi, xalqparvarligiga tan berib, uni munosib baholaydi. Chaqimchini dorga ostirib, Botirni ovulga oqsoqol etib tayinlaydi. Ijodkor xalq og‘zaki ijod asarlarida, jumladan, ertaklarda, mehnatkash xalq vakilidan podsho ko‘tarar ekan, buni adolatsizlikdan qutulishning birdan-bir yo‘li deb tushungan.[1]

Yoshlarni sharqona qadriyatlar, milliy urf-odatlar ruhida barkamol etib tarbiyalashda **axloqiy tarbiya**ning o‘rni beqiyos. Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. O‘qish kitoblarida axloqiy tarbiyani singdirishga xizmat qiluvchi bir necha ertaklar jamlangan. “Rostgo‘y bola”, “Botir mergan va chaqimchi”, “Halollik”, “Ahillik – ulug‘ baxt”, “Omonatga xiyonat”, “Hiylagarning jazosi”, “Eng ulug‘ fazilat” ertaklari mana shu mazmundagi ertaklardir.

[1] Razzoqov H. va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 41.

https://wordlyknowledge.uz